

**“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi majlisining
BAYONNOMASI № 138**

*“O‘zagrosug‘urta” AJ
Boshqaruvining majlislar zali*

*2022-yil 20-oktabr
soat 10-00*

Raislik qiluvchi: Sh. Rasulov – “O‘zagrosug‘urta” AJ
Boshqaruvi raisi

Boshqaruv a‘zolari: A. Yusupov, B. Axadov, A. Jumayev,
B. Sodiqov, M. Nosirov

Taklif etilganlar: P. Turamuratov, R. Masharipov, B. Turgunov

Majlis kotibi: D. Erkinjonov

KUN TARTIBI

**“O‘zagrosug‘urta” AJ tizimidagi xodimlarining odob-axloqi qoidalari,
Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom, Odob-axloq komissiyasi tarkibini
hamda Jamiyat Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyoti tasdiqlash haqida**

(Sh. Rasulov, B. Axadov, D. Erkinjonov, P. Turamuratov, B. Turgunov, R. Masharipov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyatining Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori v.v.b. D. Erkinjonov so‘zga chiqib, Jamiyat Boshqaruvida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi **“Davlat fuqarolik xizmatichilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi 595-sonli qarori ijrosi yuzasidan “O‘zagrosug‘urta” AJ tizimidagi xodimlarining odob-axloqi qoidalari, Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom haqida axborot berdi hamda Odob-axloq komissiyasi tarkibini tasdiqlash maqsadida quyidagi nomzodlar taklifini kiritdi:

1. B. Axadov – Boshqaruv raisining o‘rinbosari – Transformatsiya va innovatsiya direktori; 2. D. Erkinjonov – Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori v.v.b.; 3. P. Turamuratov – Komplaynes nazorat departamenti direktori; 4. B. Turgunov – Yuridik departament yetakchi yuriskonsulti; 5. R. Masharipov – Kasaba uyushmasi raisi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan kiritilgan takliflar muhokama qilinib Boshqaruv majlisi **qaror qiladi:**

1. “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori v.v.b. D. Erkinjonovning axboroti ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zagrosug‘urta” AJ tizimidagi xodimlarining odob-axloqi qoidalari **1-ilovaga**, Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom **2-ilovaga**, Odob-axloq komissiyasi tarkibi **3-ilovaga** hamda “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Boshqaruv majlisining 2022-yil 1-avgustdagi 112-son bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan 4-, 13-, 14-ilovalar bekor qilinsin.

Boshqaruv raisi

 **Sh. Rasulov**